



## TRANSPORT VOSITALARI BILAN PIYODA O'RTASIDAGI XOLATGA TEXNIK BAHO BERISH

**Isoxanov O'tkir Ibodullayevich**

*(Toshkent davlat transport universiteti, katta o'qituvchi)*

**Abdurazakova Dildora Anvarovna**

*(Toshkent davlat transport universiteti, katta o'qituvchi)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada avtomobil bilan piyoda o'rtasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisasini oldini olishda haydovchining transport vositasi texnik imkoniyatini aniqlash usuli keltirilgan. Bunda quyidagi xolatlarda aniqlanadi, yo'l transport hodisasi sodir bo'lganda avtomobil haydovchisini to'xtatib qolish orqali hodisani oldini olib qolish texnik imkoniyatiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmaganligi avtomobilning to'xtatib qolish masofasi  $S_0$  va uning voqea joyidan harakatga xavf paydo bo'lgan vaqtdagi uzoqlik masofasi  $S_a$  larni taqqoslash orqali aniqlanadi.

**Annotation:** This article presents a method for determining the technical possibility of a driver's vehicle in preventing a road traffic accident that occurs between a car and a pedestrian. In doing so, it is determined in the following cases, whether or not a road has the technical ability to prevent an accident by stopping a motorist in the event of a traffic accident is determined by comparing the car's braking distance  $S_0$  and its distance from the incident location at the time of danger to movement  $S_a$ .

**Kalit so'zlar:** yo'l transport hodisasi, avtomobil, piyoda, tezlik, tormoz, to'xtash, masofa, haydovchi.

**Keywords:** road traffic accident, car, pedestrian, speed, brake, parking, distance, driver.

Har yili yo'llarimizda 10 minggacha yo'l transport hodisasi sodir bo'lmoqda. Buning oqibatida o'tgan yili 2,5 mingga yaqin insonlar bevaqt hayotdan ko'z yumdi, 9 mingdan ortig'i turli darajadagi tan jarohati oldi.

Yo'l transport hodisalarining 20% tezlikka rioya qilmaslik, 25 % yo'llardagi kamchiliklar, 47 % piyodalar ishtirokida, 10 % haydovchilarning tajribasizligi, 8 % qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketish, 6 % veloyo'lak bo'lmaganligi oqibatida sodir etilgan.


Bundan ko'rinib turibdiki yo'l-transport hodisalarining salmoqli qismi piyodalar ishtirokida sodir etilayotganini ko'rsatmoqda.



РЕСПУБЛИКА ХУДУДИДА 2022 ЙИЛНИНГ 6 ОЙИ ДАВОМИДА СОДИР ЭТИЛГАН ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИ ТАҲЛИЛИ



Avtomobil bilan piyodani urib yuborish eng ko'p uchraydigan yo'l transport hodisalaridan biridir. Mamlakatimizda piyodalar bilan to'qnashuvlar taxminan 35-40 foizni, shaharlar va yirik aholi punktlarida esa barcha hodisalarning 50-60 foizini tashkil qiladi. Qolaversa, aksariyat hollarda to'qnashuvlar piyodalarning intizomsizligi va e'tiborsizligi tufayli yuzaga keladi. Yo'lni taqiqlangan joyda va harakatlanayotgan avtomobilga yaqin joyda kesib o'tish, svetofor va svetoforning signallariga e'tibor bermaslik, bolalar va o'smirlarning yo'lda o'ynashi to'qnashuvlarning eng ko'p uchraydigan sabablari hisoblanadi. Ushbu harakatlarning aksariyati haydovchi uchun to'satdan va kutilmaganda sodir bo'ladi va u har doim to'qnashuvning oldini olish uchun zarur choralarni ko'rishga ulgurmaydi yoki ularni kechikish bilan qabul qiladi, bu esa ko'pincha piyodaning hayotiga xavf soladi.



### 1-rasm. 2022 yilda O'zbekiston respublikasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarining turlari bo'yicha tahlili.<sup>1</sup>

Tahlillar natijasiga yo'l transport hodisalarining turlari bo'yicha eng ko'pi 44,9 % ni piyodani urib yuborish va 31,2 % ni to'qnashuvga to'g'ri kelmoqda.

Tadqiqot sifatida avtomobil bilan piyoda o'rtasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisasi kimning aybi bilan sodir bo'lganligini aniqlash uchun kerakli bo'ladigan boshlang'ich materiallar. Yo'l transport hodisasi sodir bo'lgan joyda yo'l asfalt, tekis, quruq, gorizontol, kunduzi yoki kechqurun – YTH hujjatlari va qarordan kelib chiqiladi. Kobalt rusumli avtomobilida 1 nafar yo'lovchisi bo'gan, yuksiz va texnik soz xolda bo'lgan 10-15 km/s bilan harakatlanib, avtomobil tormozlanmagan xolda, piyodani oldi chap qismi bilan urib yuborgan.

Piyoda voqea joyigacha qarab 4,5 metr masofani jadvalda ko'rsatilgani bo'yicha 3,8 km/coat tezlik bilan harakatlangan

Matematika amallarini bajarishda quyidagi shartli belgilar qo'llanilgan:

\* - ko'paytirish; 2 - kvadratga ko'tarish; / - bo'lish; 0,5- kvadrat ildiz chiqarish;

t1 - Kobalt avtomobilsi haydovchisining reaksiya vaqti 0,6 s;

t2 - Kobalt avtomobilsi tormoz tizimining ishga tushishini kechikish vaqti 0,1 s;

t3 - Kobalt avtomobilsi sekinlashish miqdorining kuchayish vaqti, 0,35 s;

j - Kobalt avtomobilsining sekinlashish miqdori 7,26 m/s<sup>2</sup>;

Va - Kobalt avtomobilsining harakat tezligi, 10-15 km/soat;

Vp - piyodaning harakat tezligi, 3,8 km/soat;

Sp - piyodaning hodisa joyigacha bosib o'tgan masofasi, 4,5 m.

<sup>1</sup> <https://yhxx.uz>



1. Qarorda keltirilgan yo'l hodisasi sharoitida haydovchi Kobalt avtomobilsini to'xtatib qolish orqali hodisani oldini olib qolish texnik imkoniyatiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmaganligi avtomobilning to'xtatib qolish masofasi  $S_o$  va uning voqea joyidan harakatga xavf paydo bo'lgan vaqtdagi uzoqlik masofasi  $S_a$  larni taqqoslash orqali xal etiladi.

Ushbu yo'l hodisasi sharoitida Kobalt avtomobilsining to'xtatib qolish masofasi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_o = (t_1 + t_2 + 0,5 * t_3) * V_a / 3,6 + V_a^2 / 25,92 / j$$

O'tkazilgan amallar natijasida 10-15 km/soat tezlikda harakatlangan Kobalt avtomobilsining to'xtatib qolish masofasi tezliklarga mos ravishda aniqlangan xisoblar 1-jadvalga qaralsin.

Piyoda 4,5 metr masofaga harakatlangan vaqtida Kobalt avtomobilsining voqea joyidan qancha uzoqlikda bo'lganligi quyidagicha aniqlanadi:

$$T_p = 3.6 * \frac{S_p}{V_p};$$

$$S_a = \frac{V_a * T_p}{3.6}$$

Bajarilgan amallar natijasida 10-15 km/soat tezlikda harakatlangan Kobalt avtomobilsining hodisa joyidan qancha uzoqlikda bo'lganligi 1-jadvalga qaralsin.

1- jadval

V a, km/s	S <sub>a</sub> ,m	S <sub>o</sub> ,m	Texnik imkoniyatga
5 0	11 ,8	3 4,	<b>Ega bo'lgan</b>
6 0	17 ,8	8	

Yuqorida bajarilgan amallarning natijalarini taqqoslash  $S_o < S_a$  ekanligini ko'rsatdi.

Demak, ushbu yo'l hodisasi sharoitida harakatga xavf tug'ilgandan boshlab haydovchi boshqaruvidagi Kobalt avtomobilsini o'z vaqtida to'xtatib qolish yo'li bilan hodisani oldini olib qolish uchun texnik **imkoniyatga ega bo'lgan**.

Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlardan shunday xulosaga kelimiz O'zbekiston Respublikasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarining turlari bo'yicha tahlilida eng ko'pi 44,9 % ni piyodani urib yuborish va 31,2 % ni to'qnashuvga to'g'ri kelmoqda. Ushbu yo'l transport hodisasidan ko'rinib turibdiki hamisha ham haydovchilar ayibdor xolatlari ham kuzatiladi, haydovchilar va piyoda orasidagi masofani to'g'ri



tanlay olmagan xolatlarda, transport vosita haydovchilari YTHning oldini olish texnik imkoniyatiga ega bo'lganda haydovchilar sababli YTH kelib chiqqan degan xulosaga kelamiz.

Ushbu yo'l transport hodisalarini kamaytirish uchun birinchidan haydovchilarning madaniyati, etika va estetikasini, harakatga xavf tug'ilgandagi xolatlarni inobatga olib, yo'l transport hodisasiga kelib chiqishga sababchi bo'lgan haydovchilarni va piyodalarni qayta tayorlash va malakasini oshirish uchun yo'l transport hodisalarini bo'yicha mutaxassislar tomonidan o'quv kurslari tashkil qilishlari va maktablarda yo'l xarakat qoidalari o'rgatish bo'yicha maxsus o'qituvlar o'qitishlarini takliflar kiritamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2.-М.1980 г.- 491 стр.
2. Применение дифференцированных значений времени реакции водителя в экспертной практике. - М. 1987 г.
3. Использование в экспертной практике экспериментально-расчётных значений параметров торможения автотранспортных средств. В.1995 г.
4. O'tkir Isoxanov, Salohiddin Turdibekov, Erkinjon Abdusamatov (2023). AVTOMOBIL YO'L EKSPERTIZASI BO'YICHA YA'NI YO'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.
5. O'tkir Isoxanov, Salohiddin Turdibekov, Erkinjon Abdusamatov (2023). YENGIL AVTOMOBILLARDA KO'RINMAS XUDUD DA YO'L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISH CHORALARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1 (6) 92-95.
6. Хакимов Ш.К., Саматов Р.Г., Ражапова С.С., Абдураззакова Д.А., Абдусаматов Э., Аbruев Ш. СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЁМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ "ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ" №9(100) 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/snizhenie-kolichestva-vyhlopanyh-gazov-transportnyh-sredstv-putyom-kompyuternogo-modelirovaniya-perekrestka>
7. O'tkir Isoxanov, Erkinjon Abdusamatov, Salohiddin Turdibekov YENGIL VA YUK AVTOMOBILLAR ISHTIROKIDAGI YTH TAHLILI
8. O'tkir Isoxanov, Erkinjon Abdusamatov, Salohiddin Turdibekov AVTOMOBIL BILAN PIYODA O'RTASIDA SODIR BO'LGAN YO'L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA HAYDOVCHILARNING TRANSPORT VOSITALARIDA TEXNIK IMKONIYATINI ANIQLASH
9. Abdurazakova Dildora Anvarovna, Usmanova Makhira Nuralievna THE ROLE OF NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN ENSURING ROAD SAFETY,



World Economics & Finance Bulletin (WEFB) Available Online at:  
<https://www.scholarexpress.net>, Vol. 6, January 2022, ISSN: 2749-3628

10. Dildora Abdurazakova Anvarovna., Utkirov Shokirxoja Shavkat o'g'li  
ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS SCIENCE AND  
INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE  
CONFERENCE <https://doi.org/10.5281/zenodo.7695531>